XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 24-sentabr VII-17-109-5-0-K/25 Navoiy viloyati

“Navoiyuran” davlat korxonasining ichimlik suvini ishlab chiqarish va yetkazib berish xizmati tariflarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi “ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-sonli Qonuni, “Navoiyuran” davlat korxonasi (keyingi o‘rinlarda – Korxona deb yuritiladi)ning 2025-yil 27-iyundagi 04-02/01/3265-sonli, 3-iyuldagi 04-02/01/3383-sonli xatlari, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari G‘. Boboqulovning 2025-yil 19-iyundagi “Navoiyuran” DKning ichimlik suvini ishlab chiqarish va yetkazib berish xizmati narx(tarif) hisob-kitoblari to‘g‘risida”gi 01-12/20-17-32/501-sonli xulosasi hamda bildirilgan taklif, fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16^2 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashi,

QAROR QILADI:

1. “Navoiyuran” davlat korxonasi bosh direktorining iqtisod va moliya bo‘yicha o‘rinbosari v.b A. Adizovning korxona tomonidan Konimex tumani Zafarobod qo‘rg‘onidagi ulgurji tashkilotlarga toza ichimlik suvini yetkazib berish xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Korxonaning Konimex tumani Zafarobod qo‘rg‘oni bo‘yicha ulgurji tashkilotlarga ichimlik suvni ishlab chiqarish va yetkazib berish bo‘yicha taklif narx (tarif)lari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati (Sh. Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (A. Muqimov), “Do‘stlik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririyati davlat korxonasi (B. Umarov)ga olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingandan boshlab, 15 kundan so‘ng kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimi o‘rinbosari (E. Kamolov) hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (N. Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIYEV G‘OFIR QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2025-yil 24-sentabrdagi
VII-17-109-5-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Navoiyuran” davlat korxonasi Konimex tumani Zafarobod qo‘rg‘oni bo‘yicha ulgurji tashkilotlarga ichimlik suvni ishlab chiqarish va yetkazib berish
TAKLIF NARXLARI (TARIFLAR)

QQSsiz

T/r	Mahsulot nomi	Hajmi	Narxi
1	Ichimlik suvi	1 m3	3 750,00

QQS bilan

T/r	Mahsulot nomi	Hajmi	Narxi
1	Ichimlik suvi	1 m3	4 200,00